

EVTAGOGIKANING ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI

Malohat Xidirova

Guliston davlat pedagogika instituti

Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

tel: (+99893) 334-88-86. xidirovamalohat848@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.14594165>

Annotatsiya. Mazkur maqolada evtagogikaning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Evtagogika bolalar ta'limining metodologik asoslarini tashkil etib, yosh avlodning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bugungi ta'lim tizimida evtagogikaning o'rni faqat bolalarga bilim berish bilan cheklanmay, ularning ijodiy fikrlash, mustaqil ishlash, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratiladi. Ta'limda faol o'qitish metodlari, individual ehtiyojlarga moslashish va texnologiyalardan foydalanish orqali bolalarning samarali rivojlanishiga erishiladi.

Kalit so'zlar: Evtagogika, zamonaviy ta'lim, bolalar ta'limi, faol o'qitish, interaktiv ta'lim, ijtimoiy rivojlanish, texnologiyalar, mustaqil fikrlash, ta'lim metodlari.

THE PLACE OF EUTAGOGICS IN THE MODERN EDUCATIONAL SYSTEM

Abstract. The article examines the role and significance of heutagogy in the modern educational system. Heutagogy is the basis of the methodology of children's education, promoting the intellectual, emotional and social development of the younger generation. In the modern educational system, heutagogy plays an important role not only in the transfer of knowledge to children, but also in the development of their creative thinking, independent work, social skills.

The use of active teaching methods, an individual approach and technology contribute to the effective development of children.

Keywords: Heutagogy, modern education system, children's education, active learning, interactive learning, social development, technology, independent thinking, teaching methods.

МЕСТО ЭВТАГОГИКИ В СОВРЕМЕННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЕ

Аннотация. В статье рассматривается роль и значение эвтагогики в современной образовательной системе. Эвтагогика является основой методологии детского образования, способствующей интеллектуальному, эмоциональному и социальному развитию подрастающего поколения. В современной образовательной системе эвтагогика играет важную роль не только в передаче знаний детям, но и в развитии их творческого мышления, самостоятельной работы, социальных навыков.

Использование активных методов обучения, индивидуальный подход и технологии способствуют эффективному развитию детей.

Ключевые слова: *Эвтагогика, современная система образования, детское образование, активное обучение, интерактивное обучение, социальное развитие, технологии, самостоятельное мышление, методы обучения.*

Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadi — o'quvchilarni nafaqat akademik bilimlar bilan ta'minlash, balki ularni turli sohalarida ijodkor, mas'uliyatli va jamoada ishlay oladigan shaxs sifatida shakllantirishdir. Shu sababli, evtagogikaning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'zni tobora muhim bo'ymoqda.

Evtagogika nima?

Evtagogika — o'z-o'zini boshqaruvchi ta'lim konsepsiyasi bo'lib, unda o'quvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini mustaqil ravishda rivojlantiradilar. Bu yondashuv an'anaviy pedagogika va andragogikadan farqli ravishda, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatni emas, balki o'quvchining o'ziga mustaqillik berishni ustun qo'yadi. Bunda o'quvchilar o'zlarining shaxsiy mas'uliyatni his qilib, o'rganishning asosiy yo'nalishlarini mustaqil belgilaydi, o'qitish vositalarini, o'quv resurslarini tanlaydi va ta'lim olishni o'zlariga moslab olishadi, natijalarga erishishni maqsad qiladilar. Evtagogika ko'pincha masofaviy ta'lim va onlayn kurslarda keng qo'llaniladi, chunki bu ta'lim olish uchun o'quvchi o'z vaqtini va o'quv vaqtini o'zi belgilaydi[1].

Rivojlangan ta'limda bolalarning faol va o'z fikrini erkin bildira oladigan shaxslar bo'ishi talab qilinadi. Evtagogika bu talabga javob beruvchi ta'lim yondashuvlarini taqdim etadi. Misol uchun, o'quvchilarga nafaqat bilimlar, balki ularda mavjud bo'gan ijtimoiy va emotsional ko'nikmalarni ham rivojlantirish zarur. Bu jarayonda evtagogik metodlar va usullar ta'lim jarayonini yanada samarali va bolaning psixologik rivojlanishiga moslashtirishda yordam beradi.

Evtagogika zamonaviy ta'limda faol o'qitish metodlarini qo'llashni ta'kidlaydi. Bolalar o'quv jarayonida passiv auditoriya bo'lib qolmasligi kerak. Aksincha, ular o'zlarining fikrlarini ifoda etish, savollar berish, muammolarni hal qilish va jamoaviy faoliyatda ishtirok etishlari kerak.

Evtagogika bu jarayonni tashkil etishda ko'plab metodlarni taklif etadi: guruh ishlari, loyiha asosida o'qitish, o'yin metodlari, ro'yxatga olish, ko'rgazmali materiallar va boshqalar.

Evtagogik metodlarning asosiy xususiyatlari quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

1. Mustaqil o'rganish: O'quvchilar o'z o'quv rejasini yaratish, resurslarni izlash va o'z bilimlarini tahlil qilishda mustaqil ishlashga o'rgatiladi.
2. Kritik fikrlash: O'quvchilar mustaqil ravishda mavzularni tahlil qilish, o'z fikrlarini shakllantirish va dalillar bilan asoslashga o'rgatiladi.
3. Refleksiya: O'quvchilarga o'z o'rganish jarayonini baholash va shaxsiy tajribalarini tahlil qilish imkoniyatini beradi, bu esa o'z-o'zini yaxshilashga yordam beradi.

4. Kooperativ o'rganish: Guruh bo'lib ishlash va bir-biridan o'rganish usullarini qo'llash orqali o'quvchilar o'zaro fikr almashish va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

5. Kontekstual o'rganish: Evtagogik metodlar real hayotdagi masalalar va vaziyatlarga asoslangan o'quv faoliyatlarini tashkil etadi. Bu o'quvchilarga o'z bilimlarini amaliyotga tatbiq qilish imkonini beradi [2].

Interaktiv ta'lim esa bolalarning faol qatnashishiga, o'z fikrlarini erkin ifoda etishlariga va bir-birlaridan o'rganishlariga imkon yaratadi. Bunday ta'lim usullari bolalarning ijodiy qobiliyatlarini oshiradi, jamoa ishlari orqali ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi va o'z-o'zini anglashni kuchaytiradi.

Zamonaviy ta'lim tizimining yana bir muhim jihati — bolalarning individual ehtiyojlarini hisobga olishdir. Har bir bola o'zining maxsus qobiliyatlari, qiziqishlari, o'qish uslubi va rivojlanish bosqichi bilan farq qiladi. Evtagogik yondashuvlar, aynan, bolalarning bu farqlarini hisobga olgan holda o'qitish metodlarini tanlashni talab etadi. Bu, o'z navbatida, bolalarning muvaffaqiyatli o'qishi va rivojlanishiga ko'maklashadi.

Evtagogik ta'limda individual ehtiyojlarga moslashishning asosiy jihatlari sifatida o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, shaxsiy o'quv rejasini tuzish, differensatsiyalangan o'qitish, individual izlanish va tadqiqotlar ni misol qilib olishimiz mumkin.

Bunda har bir o'quvchi o'ziga xos qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlariga ega bo'lib, o'qituvchi o'quvchining o'rganish uslubini (vizual, auditiv, kinestetik), tezlikni va individual motivatsiyani hisobga olib ta'limni tashkil etadi. Bu o'quvchining o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantiradi va o'quv jarayoniga yanada samarali yondashishni ta'minlaydi.

O'quvchilarga o'z o'rganish jarayonini boshqarish imkoniyatini berish, ularning o'z-o'zini o'rgatish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu reja o'quvchining ehtiyojlariga qarab moslashtiriladi va unga o'z vaqtini boshqarish, o'rganish jarayonini samarali tashkil qilish imkonini beradi.

Differensatsiyalangan o'qitishda esa, o'quvchilarning bilim darajasi turlicha bo'lgani uchun, o'qituvchi har bir o'quvchi uchun turli topshiriqlar, resurslar va mashg'ulotlar yaratadi.

Masalan, o'quvchi tez o'rganadigan bo'lsa, unga murakkabroq masalalar yoki qo'shimcha materiallar taqdim etiladi. Aksincha, o'quvchi ko'proq vaqt va yordamga muhtoj bo'lsa, unga oddiy tushuntirishlar va qo'llab-quvvatlash materiallari taklif etiladi [4].

O'quvchilar o'z qiziqishlariga asoslangan izlanishlar va tadqiqotlar olib boradilar.

Evtagogik metodlar ularga o'zining qiziqishlari va ehtiyojlari asosida o'rganish imkoniyatini yaratadi, bu esa motivatsiyani oshiradi. Shu bilan birga o'quvchilarga o'z o'rganish jarayonini tahlil qilish va baholash imkoniyatini berish, ularning o'zgarishlarga va rivojlanishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi. Bu usul o'quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi va ta'lim jarayonini yanada shaxsiylashtiradiatsiyani oshiradi.

Hozirgi ta'lim tizimi, shuningdek, bolalarning mustaqil o'rganish qobiliyatini rivojlantirishga katta e'tibor beradi. Evtagogika, o'z navbatida, bolalarni o'z bilimlarini mustahkamlash, yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishda mustaqil fikrlashga undaydi. Bu bolalarga ta'lim olgan materialni nafaqat eslab qolish, balki uni amaliyotda qo'llash imkonini beradi.

Evtagogikaning yana bir muhim jihati — bolalarning emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga e'tibor qaratishdir. Zamonaviy ta'lim bolalar uchun nafaqat bilim olish, balki ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Bunda evtagogika bolalar o'rtasida do'stlik, hurmat, jamoaviy ishlarni amalga oshirishga qaratilgan faoliyatlarni taklif etadi [4].

Bolalarning emotsional rivojlanishi nafaqat o'zini anglash, balki boshqalar bilan aloqalar o'rnatish va ijtimoiy vazifalarni bajarish bilan bog'liq. Evtagogika bu jarayonda o'qituvchilarni bolalar bilan ijtimoiy aloqalar o'rnatishda yordam beradigan metodlar bilan ta'minlaydi.

So'nggi yillarda ta'lim tizimida texnologiyalarning roli tobora ortib bormoqda.

Evtagogika ayniqsa, yangi texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiyalashda muhim ahamiyatga ega. Onlayn ta'lim platformalari, interaktiv o'quv materiallari va virtual sinflar bolalarga o'zlariga qulay bo'lgan va qiziqarli o'qish imkoniyatlarini yaratadi. Shu bilan birga, texnologiyalar bolalarning mustaqil o'rgatish jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, evtagogika zamonaviy ta'lim tizimida bolalar ta'limining asosiy yondashuvlaridan biri sifatida o'zining o'rnini mustahkamladi. U bolalarning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda faol, interaktiv va ijtimoiy-emotsional rivojlanishga yo'naltirilgan ta'lim usullarini taklif etadi. Shu bilan birga, texnologiyalarni qo'llash, mustaqil o'rganish va jamoaviy faoliyat bolalarning o'z-o'zini anglashini, ijodiy fikrlashini va muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlanishini ta'minlaydi. Evtagogikaning ta'lim tizimidagi o'rnini, bolalar ta'limining sifatini oshirishga va ularning kelajakdagi muvaffaqiyatli hayotga tayyorlanishiga katta hissa qo'shadi.

REFERENCES

1. Qazakhovna, K. M. (2024). ORGANIZATION AND EVALUATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON HEUTAGOGICAL APPROACHES. *Eurasian Journal of Academic Research*, 4(2-1), 178-189
2. Xidirova, M. (2024). USE OF DIGITAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING ADULTS. *Modern Science and Research*, 3(5), 466-470.
3. Ra'no, D. S., Khidirova, M. Q., Nosirova, D. S., & Jonzoqova, S. A. COLLABORATIVE LEARNING TECHNOLOGY BASED ON THE CONTENT OF THE FORMATION OF STRATEGIC COMPETENCE.

4. Garnett, F. Heutagogy, Emergent, Ambient. November 18, 2010:
<https://blog.bitobe.ru/article/khyutagogika-evtagogika/>.
5. Smith, R., & Brown, L. (2018). Child Development and Education in Modern Systems. London: Education Press.
6. Vygotsky, L. (1987). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.